ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR TIZIMI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASHINI FAOLLASHTIRISH

Axmadjonova Sevinch Farxodjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti
E-mail: S.F.Axmadjonova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini uyg'otishda rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimidan foydalanish yo'llari ko'rib chiqilgan. Bir xil qolipdagi mashqlardan farqli ravishda, o'quvchini muammoni payqashga, belgilarni o'zaro solishtirishga, tanlagan javobini dalil bilan himoya qilishga hamda o'z harakatini baholashga o'rgatadigan topshiriqlar ketma-ketligi asoslangan. Ona tili, o'qish savodxonligi va matematika darslaridagi mashqlarni qayta tuzish namunalari berilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, mustaqil fikrlash, rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi, bilish faolligi, muammoli vaziyat, qiyoslash, dalillash, refleksiya.*

АКТИВИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМЫ РАЗВИВАЮЩИХ ЗАДАНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: *В статье рассмотрены пути использования системы развивающих заданий для активизации самостоятельного мышления учащихся начальных классов. В отличие от однотипных упражнений обоснована последовательность заданий, приучающих школьника замечать проблему, сопоставлять признаки, защищать выбранный ответ аргументами и оценивать собственные учебные действия. Приведены примеры перестройки упражнений по родному языку, читательской грамотности и математике.*

Ключевые слова: *начальное образование, самостоятельное мышление, система развивающих заданий, познавательная активность, проблемная ситуация, сравнение, аргументация, рефлексия.*

ENHANCING INDEPENDENT THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH A SYSTEM OF DEVELOPMENTAL TASKS IN A MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: *The article examines ways of using a system of developmental tasks to stimulate independent thinking among primary school students. Unlike uniform routine exercises, a sequence of tasks is substantiated to accustom learners to noticing problems, comparing features, defending their chosen answers with arguments, and evaluating their own learning actions. Examples of redesigning exercises in native language, reading literacy, and mathematics lessons are provided.*

Keywords: *primary education, independent thinking, system of developmental tasks, cognitive activity, problem situation, comparison, argumentation, reflection.*

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Boshlang‘ich ta’limda bilimning o‘zlashtirilishi faqat o‘quvchining to‘g‘ri javobni ayta olishi bilan belgilanmaydi. Muhim jihat — bola nima uchun bu javobni tanlagani, qaysi ma’lumotga tayangani va tanlagan usulini boshqa vaziyatda qo‘llay olishidir. Shu sababli mustaqil fikrlash darsning qo‘shimcha natijasi emas, o‘quv mazmunini egallash jarayonining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ko‘zda tutilgan shaxsni rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy maqsadlar mazkur yondashuvning umumiy huquqiy asosini tashkil etadi .

Ushbu maqolada mustaqil fikrlash deganda o‘quvchining topshiriq shartini anglab olishi, muhim belgilarni ajratishi, bir nechta javob imkoniyatini ko‘rib chiqishi, javobini izohlashi va natijasini tekshirishi nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinf yoshida bu harakatlar hali shakllanish jarayonida bo‘lgani uchun ularni tayyor talab sifatida qo‘yish emas, muntazam mashq qildirish zarur. Masalan, bola ikki predmetning farqini aytish bilan cheklanmasdan, aynan qaysi belgi taqqoslash uchun muhimligini tushuntirsa, uning fikrlash faoliyati oddiy kuzatishdan tahlil bosqichiga o‘tadi.

Darslik va mashg‘ulotlarda namunaga qarab bajariladigan mashqlar muhim didaktik vazifani bajaradi: ular qoidani anglash, amallar ketma-ketligini o‘zlashtirish va dastlabki malakani mustahkamlashga yordam beradi. Muammo bu mashqlarning mavjudligida emas, o‘quv faoliyati faqat ular bilan chegaralanib qolishidadir. O‘quvchi doimo bir xil topshiriqni takrorlasa, qaysi vaziyatda aynan shu usulni tanlash kerakligini mustaqil hal qilishga kamroq duch keladi. Shuning uchun reproduktiv mashqdan keyin uni o‘zgartirilgan shartda bajarish, boshqa yechimni topish yoki tanlov sababini izohlashni talab qiladigan savol berish maqsadga muvofiq.

Maqolada rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi o‘quvchini to‘rt xil fikrlash harakatidan izchil olib o‘tadigan metodik model sifatida yoritiladi: muammoni payqash, ma’lumotni tahlil qilish, yechimni asoslash va bajarilgan ishni qayta baholash. Bu

bosqichlar bir-birini uzviy to'ldirib boruvchi mashqlardir. Dastlabki taxmin keyingi taqqoslashga yo'nalish beradi; tahlil qilingan ma'lumot dalil tanlashga asos bo'ladi; dalil bilan himoyalangan yechim esa yangi vaziyatda sinab ko'riladi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu ketma-ketlikning mazmunini aniqlashtirish va uni boshlang'ich sinf fanlaridagi odatiy topshiriqlarga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (METHODS)

Topshiriqning rivojlantiruvchi imkoniyatini belgilashda L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashlari nazariy tayanch bo'la oladi. Mazkur qarashdan kelib chiqadigan xulosa shuki, vazifa o'quvchi uchun mutlaqo tanish va avtomatik bajariladigan darajada sodda bo'lmasligi, shu bilan birga, hech qanday tayanchsiz uddalay olmaydigan darajada murakkab ham bo'lmasligi kerak. O'qituvchining ko'magi javobni aytib berish emas, balki e'tiborni muhim belgiga qaratish, qo'shimcha savol berish yoki bajarish usulini eslatish shaklida tashkil etiladi. Yordam asta-sekin kamaytirilganda o'quvchi avval birgalikda bajargan aqliy amalini mustaqil qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

S.L. Rubinshteynning fikrlash jarayoniga doir qarashlari muammoli vaziyatning bilish faoliyatini yuzaga chiqarishdagi o'rnini tushuntirishga yordam beradi. O'quvchi o'rgangan bilimlari bilan darhol javob topa olmaydigan savolga duch kelganda, topshiriq shartni qayta ko'rib chiqish va yangi yechim izlashga ehtiyoj sezadi. V.V. Davidovning rivojlantiruvchi ta'limga oid yondashuvi esa o'quv topshirig'ini alohida mashq emas, muayyan qobiliyatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida loyihalash zarurligini ko'rsatadi. R.W. Bybee tavsiflagan 5E modeli — jalb etish, tadqiq qilish, tushuntirish, kengaytirish va baholash — dars jarayonini bosqichlarga ajratib rejalashtirishda qo'llanishi mumkin. Ushbu manbalar maqolada taklif etilayotgan tizimning nazariy-metodik asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Ish nazariy-metodik xarakterga ega. Tadqiqot jarayonida, birinchidan, mustaqil fikrlash va rivojlantiruvchi ta'limga oid adabiyotlar mazmunan taqqoslandi; ikkinchidan, boshlang'ich sinf darslarida uchraydigan reproduktiv mashqlarning o'quvchidan talab qiladigan harakatlari tahlil qilindi; uchinchidan, shu mashqlarni muammo qo'yish, taqqoslash, asoslash va refleksiya elementlari bilan boyitish namunalari ishlab chiqildi. Tahlil birligi sifatida topshiriqning matni emas, uni bajarish davomida o'quvchi amalga oshirishi kerak bo'lgan fikrlash qobiliyati olindi.

3. NATIJALAR (RESULTS)

Tizimni ishlab chiqishda asosiy mezon sifatida topshiriq o'quvchidan qanday aqliy amalni talab qilishi olindi. Agar bola faqat qoida yoki t ma'lumotni qayta aytsa, vazifa asosan eslab qolish va takrorlashga xizmat qiladi. Agar u vaziyatdagi muammoni

aniqlasa, uning belgilarni tanlasa, yechim variantlarini qiyoslasa yoki tanlovini dalil bilan izohlasa, topshiriq mustaqil fikrlash uchun kengroq imkoniyat yaratadi. Shu jihatdan kelib chiqib, rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi to‘rt bosqichga ajratildi. Bosqichlar darsda doimo bir xil vaqt egallashi shart emas; ularning nisbati fan mazmuni, mavzu va sinfning tayyorgarligiga qarab belgilanadi.

Birinchi bosqichda o‘quvchiga hal etilishi lozim bo‘lgan savol yoki vaziyat beriladi. Masalan, ikki xil yechim ko‘rsatiladi, lekin qaysi biri ma’qul ekani aytilmaydi; yoki matnning bir qismi berilib, keyingi voqeani taxmin qilish so‘raladi. O‘quvchi avval nimani bilishi va nimani aniqlashi kerakligini ajratadi. Ikkinchi bosqichda u zarur ma’lumotlarni saralaydi: sonlarni taqqoslaydi, so‘zlarni belgisiga ko‘ra guruhlaydi, matndagi dalillarni topadi yoki tasvirlar orasidagi munosabatni aniqlaydi. Bu bosqichda o‘qituvchi tayyor tasnifni bermasdan, «Qaysi belgi bo‘yicha ajratding?» deb so‘rashi orqali topshiriq mohiyatini anglashga ko‘maklashadi.

Uchinchi bosqichda tanlangan javobning asosi ochib beriladi. O‘quvchi «Men shunday deb o‘ylayman» deyish bilan cheklanmay, fikrini qaysi qoida, matn parchasi yoki belgisiga ko‘ra bu qarorga kelganini ko‘rsatadi. Zarur holatda sinfdoshlar boshqa yechim taklif qilishi mumkin; bu esa javoblarni shaxsiy bahsga emas, dalillarni solishtirishga yo‘naltiradi. To‘rtinchi bosqichda o‘quvchi o‘z usulini biroz o‘zgargan vaziyatda qo‘llaydi va bajarish jarayoniga qaytib qaraydi. U qaysi ma’lumot yordam berganini, qayerda xato qilganini va keyingi safar nimani boshqacha bajarishini aytadi. Shu tariqa refleksiya faqat «dars yoqdimi?» kabi umumiy baho emas, o‘z fikrlash usulini anglash vositasiga aylanadi.

1-jadval. Boshlang‘ich sinflarda rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimining tuzilmasi

Bosqich	Topshiriq turi	Faollashadigan aqliy amal	Kutilayotgan pedagogik natija
I	Muammoni aniqlash	Vaziyatni anglash, savol qo‘yish, dastlabki taxminni ilgari surish	O‘quvchi nimani aniqlashi kerakligini belgilaydi va taxminini ifodalaydi
II	Ma’lumotni qiyoslash va tahlil qilish	Muhim belgilarni ajratish, taqqoslash,	Ma’lumotlar orasidagi o‘xshashlik, farq va

		guruhlash va mezon tanlash	bog‘lanishlarni aniqlaydi
III	Yechimni asoslash	Dalil tanlash, sababni izohlash, muqobil variantlarni baholash	Tanlagan javobini qoida, matn yoki hisoblash natijasi bilan asoslaydi
IV	Refleksiya va yangi vaziyatda qo‘llash	Usulni ko‘chirish, natijani tekshirish, xatoni tahlil qilish	O‘z fikrlash jarayonini baholaydi va yechimini takomillashtiradi

Modelni darsga kiritishning qulay yo‘li — mavjud mashqni bekor qilish emas, uning ortidan fikrlashni chuqurlashtiruvchi qo‘shimcha savol berishdir. Bunda o‘quv dasturidagi mavzu va ko‘zlangan natija saqlanib qoladi, biroq o‘quvchidan talab qilinadigan faoliyat kengayadi. Masalan, so‘zlarni ajratish topshirig‘iga qaysi belgisiga ko’ra ajratganini izohlash; matn yuzasidan savolga qahramon qarorini baholash; matematik masalaga esa yechimning boshqa usulini izlash talabi qo‘shiladi. 2-jadvalda bunday o‘zgartirishning namunaviy ko‘rinishlari berilgan.

2-jadval. An’anaviy va rivojlantiruvchi topshiriqlarning qiyosiy namunalari

O‘quv fani	An’anaviy (reproduktiv) topshiriq	Rivojlantiruvchi topshiriq varianti
Ona tili	Berilgan so‘zlar orasidan ot turkumiga mansub so‘zlarni ajratib yozing.	Berilgan so‘zlarni kamida ikki guruhga ajrating. Guruhlashda qaysi belgini asos qilib oldingiz? Boshqa mezon tanlansa, guruhlar qanday o‘zgaradi?
O‘qish savodxonligi	Hikoya qahramoni qanday harakat qilganini matn asosida aytib bering.	Qahramonning qarorini ma’qullaysizmi? Fikringizni matndagi voqea yoki jumlaga tayangan holda izohlang. Boshqa qaror qanday

		oqibatga olib kelishi mumkin edi?
Matematika	Masalani berilgan reja asosida yeching va javobini yozing.	Masala shartidagi ma'lumotlarning barchasi yechim uchun zarurmi? Javobingizni tushuntiring. Masalani boshqa usul bilan yechish mumkinmi?

Keltirilgan misollar bir xil metodik tamoyilni namoyon etadi: o‘quvchi javobni topishi bilan ish tugamaydi, undan tanlovini tushuntirish yoki boshqa imkoniyatni tekshirish ham so‘raladi. Ona tili mashqida tasniflash mezonini o‘quvchining o‘zi belgilashi, o‘qish savodxonligida matndagi voqeani shaxsiy munosabat bilan bog‘lashi, matematikada esa shartdagi ma'lumotlarning yetarliligini tekshirishi nazarda tutiladi. O‘qituvchi so‘zlar soni, matn murakkabligi va hisoblash talablari kabi jihatlarni fan dasturi hamda o‘quvchilar tayyorgarligiga moslashtirishi lozim.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

O‘quvchining fikrlashi uchun sharoit yaratish topshiriqni tanlash bilan tugamaydi. Savol berilgach, javobni darhol talab qilish o‘rniga, bolalarga avval mustaqil o‘ylash, keyin juftlikda fikr almashish imkonini berish mumkin. Bunday ketma-ketlik tez javob beradigan o‘quvchilargina emas, mulohazasini sekinroq shakllantiradigan bolalarni ham darsda faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. O‘qituvchi javoblar orasidagi farqni ko‘rsatib, «Qaysi dalil sizni shu xulosaga olib keldi?» deb so‘rashi mumkin. Muhokamaning markazida javob egasining shaxsi emas, fikrning asosi turishi kerak.

Topshiriqni tanlashda yosh xususiyati bilan bir qatorda, o‘quvchining mavzu bo‘yicha tayanch bilimi ham hisobga olinadi. Rivojlantiruvchi vazifa murakkabligi bilan emas, o‘quvchini odatdagi fikrlash yo‘lidan bir qadam oldinga olib chiqishi bilan farqlanadi. Masalan, avval so‘zlarni tayyor belgi asosida guruhlagan bola keyingi mashqda guruhlash turini o‘zi taklif qilishi mumkin. Avval masalani bitta usulda yechgan o‘quvchidan keyinroq boshqa yo‘lni topish so‘raladi. Bunday bosqichma-bosqich murakkablashtirish jarayoni yangi topshiriqni avval egallagan bilimiga tayanib bajarish imkonini beradi. Zarur paytda ko‘rsatma yoki yo‘naltiruvchi savol beriladi, ammo yakuniy qaror imkon qadar o‘quvchining o‘ziga qoldiriladi.

Mustaqil fikrlash rivojlanishi uchun o‘quvchi o‘z taxminini xotirjam ayta oladigan muhit ham zarur. Noto‘g‘ri javobni darhol to‘xtatish o‘rniga, o‘qituvchi uni tekshirish

yo'lini taklif qilishi mumkin: «Bu fikrni qaysi misol tasdiqlaydi?», «Shartdagi boshqa ma'lumotni hisobga olsak, natija o'zgaradimi?» Bunda xatoni to'g'ri javob bilan almashtirishning o'zi yetarli emas; mana shu xato javobga olib kelgan fikrlash jarayonini ham aniqlashtirish kerak. O'quvchi qaysi taxmini asoslanmaganini ko'rsa, keyingi vazifada shu jihatga e'tibor qaratadi. Shunday munosabat sinfda dalilga tayangan muhokamani shakllantirishga xizmat qiladi.

5. XULOSA VA TAVSIYALAR (CONCLUSION)

Taklif etilgan modelning amaliy qiymati shundaki, uni alohida fan yoki maxsus mashg'ulot bilan cheklash shart emas. O'qituvchi mavzuning mazmunini o'zgartirmagan holda, odatiy topshiriqqa bitta qo'shimcha fikrlash talabi kiritishi mumkin: «Buni yana qanday yo'l bilan bajarish mumkin?», «Qaysi belgi bo'yicha shunday guruhlading?», «Matndagi qaysi jumla shunday xulosaga kelishingga sabab bo'ldi?» Shu tariqa o'quvchi bilimni qo'llash bilan birga, o'z fikrining asosini ham ko'rsatishga mashq qiladi. Tizimning samarali ishlashi topshiriqlarni muntazam qo'llash va ularni sinf imkoniyatlariga moslashtirishga bog'liq.

O'qituvchi uchun amaliy tavsiya — dars rejasida kamida bitta topshiriqni mustaqil tanlov yoki izoh talab qiladigan shaklda loyihalash, javobdan oldin o'ylash vaqtini belgilash va yakunda o'quvchidan o'z yechimini qisqacha sharhlashni so'rashdir. Kuzatishda faqat to'g'ri javoblar soniga emas, muammoni aniqlash, mezon tanlash, dalil keltirish va xatoni tuzatish kabi harakatlarga ham e'tibor qaratish mumkin. Kelgusidagi amaliy tadqiqotlarda mazkur mezonlar asosida turli sinflarda kuzatuv yoki tajriba-sinov tashkil etish, olingan natijalarni taqqoslash taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-637-son. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.

2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва : Лабиринт, 2005. – 352 с.

3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 720 с.

4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – Москва : ИНТОР, 1996. – 544 с.

5. Bybee R.W. The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. – Arlington : NSTA Press, 2015. – 118 p.

6. Mavlonova R.A., To'rayeva O. Pedagogika : o'quv qo'llanma. – Toshkent : O'qituvchi, 2002. – 256 b.

7. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi : darslik / K. Qosimova, S. Matchonov, H. G'ulomova [va boshq.]. – Toshkent : NOSHIR, 2009. – 352 b.

8. Hamroyev A.R. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish : ped. fan. dokt. (DSc) ... dis. avtoref. – Buxoro, 2020.